

SURUNKALI YURAK YETISHMOVCHILIGI MAVJUD BEMORLARDA BUYURAKLAR FUNKSIONAL HOLATINI BAHOLASH

Bobojanov I. SH.

Kodirova SH. A.

Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8296438>

Izlanishdan maqsad. Surunkali yurak yetishmovchiligi (SYuYe) mavjud yoshi katta bemorlarda buyrakning funksional holatini baholash orqali, ularda surunkali buyrak kasalligining (SBK) xavf omillarini aniqlash.

Tekshirish usullari va materiallar. 36 nafar yoshi 60 dan katta bemorlar tekshiruv uchun olindi. Ularning 22tasi erkak, 14tasi ayollar. Bemorlarning o'rtacha yoshi: $64,5 \pm 4,2$. Ulardan: gipertoniya kasalligi (GK) bor bemorlar-16, yurak ishemik kasalligi (YuIK)- 11 ta, jumladan: miokard infarkti (MI) (Q tishli va Q tishsiz) o'tkazgan bemorlar-6ta, qandli diabet-9 ta, semizlik mavjud bemorlar (1-2-3 daraja) -23 ta, AQB: sistolik arterial bosim (SAB) - $156 \pm 5,22$ mm.sim.ust, diastolik arterial bosim (DAB) $89,72 \pm 4,12$ mm.sim.ust, funksional sinflariga ko'ra taqsimlanishi (NYHA bo'yicha SYuYe I-II FS - 11,2%, n=4; III FS - 50%, n=18; IV FS - 38,8%, n=14.

Natijalar. SYuYe funksional sinflari va buyrak funksional holatini xarakterlovchi analizlar natijalarining o'zaro bog'liqligi quyidagicha bo'ldi: Siydikda oqsil ekstraksiyasi tezligi mg/sutka: SYuYe I-II FS 96.4 ($\leq 30-166,0$), SYuYe III-IV FS 186 ($92,6-300 \leq$), kreatinin: SYuYe I-II FS 99 mkmol/l (92-114), SYuYe III-IV FS 107 mkmol/l (94-119), mochevina: SYuYe I-II FS 5.8 mmol/l (4.8-7.1), SYuYe III-IV FS 7.6 mmol/l (6.7-8.9), koptokchalar filtratsion tezligi (KFT): 60-89 ml/min/1-22 ta bemorda, KFT 90 > ml/min/1-5 ta bemorda, KFT 45-59 ml/min/1-9 ta bemorda va SYuYe I-II FS 74.5 ml/min/1 (56.3-98.0), SYuYe III-IV FS 66.2 ml/min/1 (51.5-92.4) aniqlandi.

Kuzatuvdagi bemorlarda SBKning tasnifi bo'yicha xavf guruhlarining taqsimlanishi: SBKi yo'q, ammo xavf mavjud 11 ta bemor, SBKi-1 o'rta xavf 16 ta bemor, SBKi-2 yuqori xavf 7 ta bemor, SBKi-3 juda yuqori xavf 2 ta bemor. Bemorlardan qon bioximik analizidagi kreatinin ko'rsatkichi: kreatinin miqdori meyorida-6% , kreatinin miqdori biroz oshgan-70% , kreatinin miqdori sezilarli oshgan-24%.

Xulosa. SYuYe da buyrak funksiyasining buzilishi, ya'ni, koptokchalar filtratsion tezligi kamayishi, buyrakning osmoregulyator funksiyasining pasayishi hamda SYuYe va SBKka xos xavf omillaridan: katta yosh, erkak jinsi, gipertoniya kasalligi, semizlik, qandli diabet kabilarning ko'proq kuzatilishi bemorlarda kasallik salbiy kechishini bir necha barobar oshirib, jiddiy oqibatlarining yuzaga chiqishini kuchaytiradi.

References:

1. <https://www.escardio.org>
2. Внутренние болезни (сердечно-сосудистая система). Г. Е. Ройтберг А.В. Струтынский